

## O‘ZBEKISTON QURILISH SANOATIDAGI IQTISODIY ISLOHOTLAR: HOLAT VA RIVOJLANISH STRATEGIYALARI

**Saidov Mash’al Samadovich**

Alfraganus universiteti,  
“Menejment va marketing” kafedrası mudiri,  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Karimov Inomjon Ortikbaevich**

TAQU, “Iqtisodiyot va ko‘chmas mulk” kafedrası dotsenti

### Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida qurilish sohasining o‘rni va ahamiyati, uni rivojlantirishdagi investitsiyalarning tutgan o‘rni keng yoritilgan. Qurilish sohasining turli iqtisodiy tarmoqlar bilan uzviy bog‘liqligi, asosiy fondlar, yalpi ichki mahsulot va bandlik ko‘rsatkichlariga ta’siri tahlil qilingan. Qonunchilikdagi yondashuvlar va ilmiy manbalar asosida investitsiyalarning samarali boshqaruvi va barqaror rivojlanishdagi ahamiyati asoslab berilgan.

**Kalit so‘zlar:** qurilish sohasi, investitsiyalar, yalpi ichki mahsulot, asosiy fondlar, iqtisodiy o‘shish, barqaror rivojlanish, bandlik.

### Аннотация

В статье рассматривается значение строительной отрасли в экономике Республики Узбекистан и её роль в обеспечении устойчивого развития. Освещается влияние инвестиций на развитие отрасли, анализируются показатели валового внутреннего продукта, основных фондов и занятости. На основе законодательства и научных трудов обоснована необходимость эффективного управления инвестициями в строительный сектор.

**Ключевые слова:** строительная отрасль, инвестиции, валовой внутренний продукт, основные фонды, экономический рост, устойчивое развитие, занятость.

### Abstract

This article explores the role and significance of the construction sector in the economy of the Republic of Uzbekistan, emphasizing the critical impact of investments on sustainable development. It analyzes the sector’s integration with other industries, its influence on GDP, fixed assets, and employment. Legal frameworks and academic research are referenced to justify the need for effective investment management in the construction field.

**Keywords:** construction sector, investments, gross domestic product, fixed assets, economic growth, sustainable development, employment

### KIRISH

Qurilish tarmog‘i har qanday davlatning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishida muhim strategik ahamiyatga ega tarmoqlardan biri hisoblanadi. U faqatgina yangi binolarni barpo etish bilan cheklanib qolmay, balki mamlakat infratuzilmasini yaratish va takomillashtirish, aholi uchun zamonaviy yashash va ishlash sharoitlarini ta’minlash, ish o‘rinlari yaratish hamda yalpi ichki mahsulot o‘shishiga hissa qo‘shish kabi ko‘plab vazifalarni bajaradi.

O‘zbekiston Respublikasida qurilish sohasini rivojlantirish ustuvor davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Bunday yondashuv mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning samaradorligini ta‘minlashda, ayniqsa, infratuzilmani yaxshilash, tadbirkorlik muhitini yaxshilash va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Qurilish tarmog‘ining sanoat, qishloq xo‘jaligi, transport va logistika, moliya hamda mehnat bozori kabi boshqa tarmoqlar bilan chuqur integratsiyasi uning ko‘plab sohalarga ta‘sir ko‘rsatuvchi markaziy sohalardan biri ekanligini ko‘rsatadi.

Ayniqsa, investitsiyalar qurilish sohasini rivojlantirishda hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ular yangi texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, zamonaviy, ekologik toza qurilish materiallari va infratuzilmalarni yaratish uchun moliyaviy resurslarni ta‘minlaydi. Shu bilan birga, qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratiladi, aholining bandligi oshadi va turmush darajasi yaxshilanadi. Bu esa, o‘z navbatida, iqtisodiyotning umumiy o‘sishiga xizmat qiladi.

2019-yil 25-dekabrda qabul qilingan “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunida investitsiya loyihalariga aniq ta‘rif berilib, ularning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik ahamiyati yoritilgan. Qonunda belgilanishicha, investitsiya loyihasi — bu foyda olish maqsadida investitsiyalarni amalga oshirishga qaratilgan, o‘zaro bog‘liq bo‘lgan tadbirlar majmuasidir. Ushbu huquqiy asoslar mamlakatda investitsiyaviy muhitni yaxshilashga xizmat qilmoqda.

Oxirgi yillarda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar natijasida, 2024-yilda O‘zbekistonda yalpi ichki mahsulot 6,5 foizga o‘sib, 115 milliard dollarga yetdi. Shu yili xorijiy investitsiyalar 1,6 barobarga oshib, 35 milliard dollarga yetdi. Ushbu mablag‘lar hisobiga 10 milliard dollarlik 242 ta yirik va o‘rta miqyosli loyihalar amalga oshirildi. Shu bilan birga, mamlakatning eksport hajmi ilk bor 27 milliard dollarni tashkil etdi.

Qurilish sohasi nafaqat iqtisodiyotning turli sohalari o‘rtasida integratsiyani mustahkamlash, balki mamlakatning barqaror taraqqiyoti uchun zamin yaratishda hal qiluvchi omildir. Shuning uchun qurilish sohasini rivojlantirish strategiyalari va iqtisodiy islohotlar samaradorligini tahlil qilish ushbu sohadagi ilmiy tadqiqotlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

## **ADABIYOTLAR SHARHI**

Qurilish tarmog‘ining iqtisodiy rivojlanishi va uning strategik ahamiyati bo‘yicha ilmiy adabiyotlarda bir qancha muhim yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilgan. Qurilish sohasi nafaqat yangi infratuzilma obyektlarini yaratishda, balki mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida muhim drayverlardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, qurilish sohasining sanoat, transport, moliya, logistika va mehnat bozori bilan chambarchas bog‘liqligi uning iqtisodiyotdagi o‘rnini mustahkamlaydi.

Ayrim tadqiqotlarda qurilish sohasi bilan bog‘liq investitsiya siyosati, moliyalashtirish mexanizmlari va iqtisodiy tavakkalchilik kabi masalalar tahlil qilingan. Jumladan:

A.N. Asaul o‘zining bir qancha ilmiy ishlarida investitsion-qurilish majmuasi tushunchasini tahlil qilgan va uni keng qamrovli tizim sifatida tavsiflagan. Uning ta’rifiga ko‘ra:

“Investitsion-qurilish majmuasi — bu kapital qo‘yilmalarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan boshqaruv, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish tarmoqlarini o‘zida birlashtirgan tizimdir.”[1]

Bu ta’rif qurilish sohasidagi investitsion faoliyatning ko‘p tomonlama va kompleks xususiyatini, ya’ni faqat moddiy ishlab chiqarish emas, balki boshqaruv, loyihalash, muhandislik, moliya, logistika kabi ko‘plab elementlar birgalikda harakat qilishini ko‘rsatadi.

V.V. Buziriyev va A.P. Suvorov o‘z tadqiqotlarida qurilish tarmog‘ini iqtisodiyotda alohida bozor shakli sifatida baholab, uning samarali faoliyat yuritishini ta’minlovchi asosiy iqtisodiy va tashkiliy omillarni aniqlab berganlar. Ularga ko‘ra, qurilish bozorining barqaror rivojlanishi uchun turli mulkchilik shakllarining mavjudligi, tadbirkorlik faoliyatining erkinligi, narxlarning bozor mexanizmlari asosida shakllanishi, ishtirokchilar o‘rtasida teng huquqli shartnomaviy munosabatlar, sog‘lom raqobat muhiti va monopoliyaga qarshi siyosat, qimmatli qog‘ozlar bozoridagi faollik, shuningdek, qurilishdagi tavakkallarni sug‘urtalash va bankrotlik holatlarini samarali boshqarish kabi mexanizmlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu omillar qurilish sohasining bozor iqtisodiyoti sharoitida samarali va barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.[2]

D.G‘. G‘ozibekov o‘z ilmiy ishlarida investitsiya tushunchasi va uning iqtisodiyotdagi o‘rnini chuqur tahlil qilgan. U investitsiyani quyidagicha ta’riflaydi: “Investitsiyalar — aniq va ishonchli manbalardan mablag‘lar olish, ularni samarali safarbar etish, tavakkalchilik darajasini hisobga olgan holda kapital qiymatini saqlash va kutilgan samarani olishdan iborat.”[3]

Bu ta’rif investitsiyalarning moddiy va moliyaviy samaradorlik nuqtai nazaridan muhimligini ko‘rsatadi.

F.O‘. Dodiyeu investitsiya faoliyatini rag‘batlantiruvchi moliyaviy va institutsional mexanizmlarni, jumladan soliq imtiyozlari, subsidiyalar, byudjetdan tashqari mablag‘lar hissasini keng yoritgan. Uning tadqiqotlarida foiz siyosati va byudjet siyosatining investitsiya muhitiga ta’siri alohida o‘rin tutadi.[4]

Mamlakatdagi amaliyotlar va iqtisodiy islohotlar 2019–2024-yillarda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar va qurilish sohasini rivojlantirish bo‘yicha davlat siyosatining samaralari haqida turli tadqiqotlar mavjud. Ayniqsa, T. G‘ulomov (2022) o‘zining “O‘zbekistonda qurilish va investitsiya sohasining rivojlanishi” mavzusidagi tadqiqotida mamlakatdagi investitsiya muhitini yaxshilash, qurilish sohasidagi islohotlarni joriy etish va natijada mavjud infratuzilmani takomillashtirish yo‘llarini o‘rgangan.[5]

Adabiyotlar tahlili qurilish sohasini rivojlantirishning iqtisodiy ahamiyati va shu sohada amalga oshirilayotgan investitsiya siyosati haqida katta xulosalarni keltirib chiqaradi. Qurilish tarmog‘ining rivojlanishi, uning sanoat, moliya va transport kabi boshqa tarmoqlar bilan integratsiyasini mustahkamlash va ekologik toza qurilish

materiallari ishlab chiqarish, iqtisodiyotning barqaror o‘shini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan huquqiy va iqtisodiy islohotlar, shu jumladan investitsiyaviy siyosatning samarali olib borilishi, qurilish sohasining rivojlanishiga va iqtisodiyotning umumiy o‘shiga xizmat qilmoqda.

## **METODOLOGIYA**

O‘zbekiston qurilish sanoatidagi iqtisodiy islohotlarning holati va rivojlanish strategiyalarini chuqur tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida qo‘llaniladigan metodologiya, iqtisodiy o‘zgarishlarning samaradorligini baholash, mavjud muammolarni aniqlash, adabiyotlar tahlili, empirik usullar, statistik va komparativ tahlil, tizimli yondashuv va ularning yechimlari bo‘yicha ilmiy asoslangan xulosalarni shakllantirish uchun keng qamrovli yondashuvlarni o‘z ichiga oladi.

## **TAHLIL VA NATIJALAR**

O‘zbekiston qurilish sanoatida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar so‘nggi yillarda soha rivojlanishining yangi bosqichini boshlab berdi. Ushbu islohotlar natijasida qurilish sohasi modernizatsiya qilinib, texnologik yangilanishlar va bozor mexanizmlariga asoslangan boshqaruv tamoyillari joriy etildi. Xususan, davlat tomonidan yaratilgan rag‘batlantiruvchi muhit va me‘yoriy-huquqiy asoslarning takomillashuvi sanoatga yangi investitsiyalarni jalb qilish imkonini kengaytirdi. Shu bilan birga, davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikni chuqurlashtirish orqali soha infratuzilmasi sezilarli darajada yangilandi, bu esa iqtisodiy islohotlarning amaliy samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Qurilish tarmog‘i har qanday milliy iqtisodiyotda strategik sektor hisoblanadi. Bu sohaning rivojlanishi nafaqat iqtisodiy o‘shini jadallashtiradi, balki zamonaviy infratuzilmaning shakllanishi, ijtimoiy barqarorlik va aholining turmush farovonligi uchun ham muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Dunyodagi taraqqiy etgan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, qurilish infratuzilmasining rivojlanganligi quyidagi ijobiy natijalarga olib keladi:

- Yangi ish o‘rinlarining yaratilishi orqali bandlik darajasining oshishi.
- Transport, muhandislik va ijtimoiy infratuzilmaning sifat jihatdan yaxshilanishi.

- Aholining yashash sifati va turmush sharoitlarining barqaror rivojlanishi.
- To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimining ko‘payishi.

Qurilish tarmog‘ini samarali rivojlantirish va uni xalqaro standartlarga moslashtirish uchun huquqiy bazaning mustahkamligi muhim ahamiyatga ega. Har qanday davlat iqtisodiyotida qurilish tarmog‘i ahamiyatli o‘rin tutadi va uning huquqiy tartibga solinishi investitsiya muhitini yaxshilash, infratuzilmani rivojlantirish va qurilish jarayonlarini shaffoflashtirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda qurilish tarmog‘ini tartibga solishga qaratilgan huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy mexanizmlar takomillashtirilib, sohaning shaffofligi va samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-apreldagi 200-son qarori – "Qurilish tarmog‘iga oid yagona ma‘muriy qurilish

reglamentlarini tasdiqlash to‘g‘risida" va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 23-apreldagi 231-son qarori – "Qurilish tarmog‘idagi normativ hujjatlarni xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida". Ushbu qaror bilan qurilish tarmog‘idagi normativ hujjatlarni xalqaro standartlarga moslashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar belgilangan.

## 1-jadval

### Milliy qurilish me‘yorlari va qoidalarining tahlili<sup>1</sup>

| Yangilanish holati |      |      |      |      |      |      |      |      |      |      |      |      |      |      |      |      |      |      |      | Me‘yorlarni qayta ishlash dasturi |      |      |      |
|--------------------|------|------|------|------|------|------|------|------|------|------|------|------|------|------|------|------|------|------|------|-----------------------------------|------|------|------|
| 2000               | 2001 | 2002 | 2003 | 2004 | 2005 | 2006 | 2007 | 2008 | 2009 | 2010 | 2011 | 2012 | 2013 | 2014 | 2015 | 2016 | 2017 | 2018 | 2019 | 2020                              | 2021 | 2022 | 2023 |
| 3                  | 0    | 9    | 4    | 35   | 22   | 64   | 54   | 15   | 30   | 6    | 15   | 12   | 8    | 6    | 5    | 5    | 5    | 1    | 63   | 55                                | 78   | 90   | 74   |

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-martdagi PF-5963-sonli farmoniga muvofiq, mamlakatimizda yangi qurilish me‘yoriy bazasini yaratish strategiyasi bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Ushbu strategiya quyidagi uch bosqichdan iborat:[6]


– Tayyorgarlik davri (2020–2022-yillar): amaldagi milliy qurilish normalari va qoidalarini qayta ko‘rib chiqish hamda O‘zbekiston Respublikasining geologik, tabiiy-iqlim, seysmologik va boshqa xususiyatlarini inobatga olgan holda xorijiy qurilish normativ-texnik hujjatlarni adaptatsiya qilish;

– O‘tish davri (2022–2026-yillar): milliy qurilish normalari va qoidalari bilan birga adaptatsiya qilingan xorijiy qurilish normativ-texnik hujjatlarini amaliyotga kiritish, qurilish tarmog‘iga innovatsiyalarni joriy etish, yangi texnologiyalarni, materiallarni, buyumlarni va konstruksiyalarni o‘zlashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar majmuasini amalga oshirish;

– Yakunlovchi davr (2026–2028-yillar): milliy va adaptatsiya qilingan xorijiy qurilish normalari va qoidalarini qo‘llash tajribasini umumlashtirish asosida qurilish tarmog‘ini texnik me‘yorlashning yagona normativ bazasini yaratish.

Qurilish tarmog‘ida xavfsizlik, sifat va xalqaro standartlarga muvofiqlikni ta‘minlash maqsadida litsenziyalash va sertifikatlashtirish tizimi joriy qilingan. Bu tizim qurilish tashkilotlari, muhandislar, pudratchilar hamda qurilish materiallari ishlab chiqaruvchilar uchun majburiy hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasida litsenziyalash va sertifikatlashtirish sohasi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-iyundagi 322-sonli qarori asosida tartibga solinadi. Qurilish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxonalar va mutaxassislar litsenziyalash tizimi orqali faoliyat yuritishi majburiy etib belgilangan.

<sup>1</sup> Muallif ishanmasi



**1-rasm. Milliy qurilish me'yorlari va qoidalari xalqaro normalarga uyg'unlashtirish<sup>1</sup>**

O'zbekiston Respublikasida elektron tender va raqamlashtirish jarayonlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-iyundagi PF-6003-son Farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-martdagi 142-son qarori asosida tartibga solinadi.

Qurilish tarmog'ida davlat xaridlarining o'tkazilishini ta'minlovchi maxsus elektron platforma vazirlik va idoralarning tizimlariga integratsiyalashgan ravishda ishtirokchilar haqidagi ma'lumotlarni inson omilisiz avtomatik ravishda olish imkonini beradi. Inson omili bartaraf etilgani hisobiga, hamda ochiq va shaffof talablar belgilanishi natijasida qurilish-pudrat tashkilotlari o'rtasida raqobat muhiti tobora sog'lomlashib bormoqda. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, tenderlarda inson aralashuviga yo'l qo'yilmagani natijasida davlat obyektlarida ishtirokchilar soni doimiy ortib bormoqda. 2023-yilda bitta tenderda qatnashuvchilarning o'rtacha soni 4 ta bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda o'rtacha 6 ta ishtirokchi qatnashmoqda.

**2-jadval**

**2025-yilda dasturlar bo'yicha tenderlar soni<sup>2</sup>**

| Hudud                         | Investitsiya dasturi PQ-98 | Investitsiya dasturi VM-19 | Investitsiya dasturi VM-40 | Mahallalar infratuzilmasi PQ-408 | E'lon qilingan tenderlar | Tugallangan tenderlar |
|-------------------------------|----------------------------|----------------------------|----------------------------|----------------------------------|--------------------------|-----------------------|
| <b>1. Andijon viloyat</b>     | 92                         | 0                          | 2                          | 626                              | 85                       | 85                    |
| <b>2. Buxoro viloyat</b>      | 71                         | 0                          | 1                          | 600                              | 62                       | 62                    |
| <b>3. Jizzax viloyat</b>      | 103                        | 0                          | 26                         | 188                              | 265                      | 265                   |
| <b>4. Navoiy viloyat</b>      | 69                         | 0                          | 4                          | 237                              | 75                       | 75                    |
| <b>5. Namangan viloyat</b>    | 84                         | 0                          | 3                          | 382                              | 73                       | 73                    |
| <b>6. Qashqadaryo viloyat</b> | 121                        | 0                          | 7                          | 723                              | 118                      | 118                   |


<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

<sup>2</sup> Muallif ishlanmasi

| Hudud                             | Investitsiya dasturi PQ-98 | Investitsiya dasturi VM-19 | Investitsiya dasturi VM-40 | Mahallalar infratuzilmasi PQ-408 | E'lon qilingan tenderlar | Tugallangan tenderlar |
|-----------------------------------|----------------------------|----------------------------|----------------------------|----------------------------------|--------------------------|-----------------------|
| 7. Samarqand viloyat              | 66                         | 0                          | 0                          | 554                              | 119                      | 119                   |
| 8. Sirdaryo viloyat               | 99                         | 0                          | 67                         | 340                              | 50                       | 50                    |
| 9. Surxondaryo viloyat            | 101                        | 0                          | 22                         | 469                              | 140                      | 140                   |
| 10. Toshkent viloyat              | 100                        | 0                          | 6                          | 990                              | 129                      | 129                   |
| 11. Farg'ona viloyat              | 77                         | 0                          | 5                          | 924                              | 106                      | 106                   |
| 12. Xorazm viloyat                | 99                         | 0                          | 15                         | 240                              | 104                      | 104                   |
| 13. Qoraqalpog'iston Respublikasi | 45                         | 3                          | 2                          | 303                              | 97                       | 97                    |
| 14. Toshkent shahar               | 132                        | 0                          | 28                         | 142                              | 37                       | 37                    |
| <b>Yig'indisi</b>                 | <b>1259</b>                | <b>3</b>                   | <b>188</b>                 | <b>6718</b>                      | <b>1460</b>              | <b>1460</b>           |

Umumiy ko'rinishda, jadval O'zbekistonning turli viloyatlaridagi investitsiya dasturlari va tender faoliyatlari bo'yicha ma'lumotlarni ko'rsatadi. U PQ-98, VM-19, VM-40 kabi investitsiya dasturlari, PQ-408 mahalliy infratuzilmani rivojlantirish dasturi, shuningdek, e'lon qilingan va tugallangan tenderlar sonini o'z ichiga oladi.

Qurilish tarmog'idagi hajm va o'sish sur'atlarining yuqori ko'rsatkichlari O'zbekistonda infratuzilma rivojlanishi va yangi qurilish loyihalarining amalga oshirilayotganidan dalolat beradi. Qurilish tarmog'ining o'sishi iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.




**1-rasm. 2010–2024-yillarda qurilish ishlari hajmi<sup>1</sup>**

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

Ushbu diagramma 2010–2024-yillar davomida O‘zbekistonda qurilish ishlari hajmining dinamikasini ko‘rsatadi. 2010-yilda qurilish ishlari hajmi 8,2458 trln so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib bu ko‘rsatkich 233,832 trln so‘mga yetgan. 2010–2015-yillarda qurilish ishlari hajmi bosqichma-bosqich o‘shib, 2015-yilda 25,423 trln so‘mga yetdi. Bu davrda o‘shish sur‘ati barqaror saqlangan. 2016-yilda qurilish ishlari hajmi keskin o‘shib, 34,698 trln so‘mni tashkil etdi. Lekin 2020-yilda pandemiya sababli qisqarish kuzatilib, hajm 88,13 trln so‘mga tushdi. Qurilish ishlari hajmi yana tiklanib, 2024-yilda eng yuqori ko‘rsatkichga erishdi. Bu bosqichda qurilish tarmog‘iga investitsiyalar hajmi oshgani seziladi. O‘shish sur‘ati har yili o‘zgarib borgan. 2014-yilda eng yuqori o‘shish sur‘ati 118,8% bo‘lgan bo‘lsa, 2020-yilda bu ko‘rsatkich 88,13% ga tushgan. 2024-yilga kelib, o‘shish sur‘ati 127,6% ni tashkil etdi.

Qurilish tarmog‘i iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga katta ta‘sir ko‘rsatadi. Masalan, qurilishga yo‘naltirilgan har bir so‘m ishlab chiqarishning turdosh sohalarda 5–7 so‘mlik qo‘yilmalarni rag‘batlantiradi. Bu esa qurilish sanoati bilan bog‘liq ravishda qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar, muhandislik-texnik xizmatlarni ko‘rsatuvchi tashkilotlar va transport-logistika sektorini ham rivojlantirishga turtki beradi. Shu bois, shahar va qishloqlar infratuzilmasini yaxshilash maqsadida qurilish faoliyatini barqaror saqlab qolish muhimdir.

Qurilish ishlari sohasida esa davlat ulushi ancha kamaygan. 2013-yilda davlat ulushi 7,6% ni tashkil qilgan bo‘lsa, 2023-yilga kelib u 1,2% ga tushgan. Bu xususiy sektorning qurilish bozorida ustuvor mavqega ega bo‘lganini ko‘rsatadi. 2016 va 2020-yillarda davlat ulushi eng past ko‘rsatkichlarga tushgan (muvofiq ravishda 4,8% va 4,5%), 2023-yilda esa tarixiy minimalga (1,2%) yetgan. Nodavlat sektor ulushi esa muttasil o‘shib, 2023-yilda 98,8% ga yetgan.




**2-rasm. Investitsiya va qurilish faoliyati asosiy ko‘rsatkichlarida iqtisodiyotning nodavlat sektori ulushi (foizda)<sup>1</sup>**

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, keyingi o‘n yillikda davlatning investitsiya va qurilishdagi ishtiroki asta-sekin kamayib, bu borada xususiy sektor yetakchi rol ni

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

o‘ynay boshlagan. Bu esa o‘z navbatida, xususi investitsiya muhitini yaxshilash, biznesga erkinlik yaratish va iqtisodiyotni bozor tamoyillari asosida rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosatining natijasi sifatida qaralmoqda. Biroq, davlat investitsiyalarining kamayishi infratuzilma va ijtimoiy ahamiyatga ega ob’ektlar qurilishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi ehtimoli mavjud.

So‘nggi yillarda uy-joy qurilishi sohasi orqali iqtisodiyotda 73 trillion so‘mlik mablag‘ aylanmasi vujudga kelib, davlat budjetiga 14 trillion so‘m tushum kiritildi. Shu bilan birga, 350 ming kishi ish bilan ta‘minlangan, qurilish materiallari, mebel va elektrotexnika bozorlarida 11 trillion so‘mlik qo‘shimcha iqtisodiy faollik yaratilgan. Bu ko‘rsatkichlar uy-joy qurilishi sohasining mamlakat iqtisodiyotiga katta ta’sir ko‘rsatayotganini va uning investitsiyaviy jozibadorligini tasdiqlaydi.



**3-rasm. Foydalanishga topshirilgan uy-joylar (umumiy maydoni, ming m<sup>2</sup>)<sup>1</sup>**

Shu nuqtai nazardan, O‘zbekistonda erkin bozor munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Bunday sharoitda bozor iqtisodiyoti yuqori darajada rivojlangan xorijiy davlatlarning ishlab chiqarishni boshqarish tajribasini chuqur o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, qurilish tarmog‘idagi ilg‘or amaliyotlar, samarali boshqaruv tizimlari va innovatsion yondashuvlar asosida bu sohada barqarorlik va samaradorlikni ta‘minlash imkoniyatlari kengaymoqda. Bu esa, o‘z navbatida, O‘zbekistonda qurilish sohasining yanada raqobatbardosh va investitsiyaviy jozibador bo‘lishiga xizmat qiladi.

Davlatlar iqtisodiyotida turli tarmoqlarning ulushi har xil bo‘lib, ularning rivojlanish yo‘nalishlari ham farqlanadi. O‘zbekistonda iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari sanoat (26,7%) va qishloq xo‘jaligi (25,1%) hisoblansa, Xitoyda sanoat (30,8%) va xizmatlar (35,2%) sohalari muhim. AQSh, Yaponiya va Germaniyada xizmatlar sohasi eng yuqori ulushga ega: AQSh (56,5%), Yaponiya (44,7%) va Germaniya (54%). Rossiyada savdo (26%) va transport (15%) sohalari katta

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

ahamiyatga ega. Qurilish tarmog‘i eng past ulushga ega bo‘lib, Rossiyada (8%) va Xitoyda (7,2%) ko‘rsatkichlar yuqori. Transport va aloqa sohasida eng yuqori ulush Rossiya (15%), AQSh (10,4%) va Yaponiyada (10,2%).

### 1-jadval.

#### Yirik iqtisodiyot tarmoqlarining YaIM dagi ulushi, (%)<sup>1</sup>

| Davlat      | Jami | Jumladan |  |          |                       |       |           |
|-------------|------|----------|--|----------|-----------------------|-------|-----------|
|             |      | Sanoat   | Qishloq va o‘rmon ho‘jaligi, baliqchilik | Qurilish | Xizmatlar sohasi      |       |           |
|             |      |          |  |          | Transport va aloqalar | Savdo | Boshqalar |
| O‘zbekiston | 100  | 26,7     | 25,1                                     | 6,7      | 7                     | 7     | 27,5      |
| Rossiya     | 100  | 21       | 5  | 8        | 15                    | 26    | 25        |
| AQSh        | 100  | 13,9     | 0,8                                      | 4,3      | 10,4                  | 14,1  | 56,5      |
| Xitoy       | 100  | 30,8     | 8  | 7,2      | 7,8                   | 11    | 35,2      |
| Yaponiya    | 100  | 23,4     | 1,1                                      | 5,3      | 10,2                  | 15,3  | 44,7      |
| Germaniya   | 100  | 21,2     | 0,7                                      | 5,3      | 8,5                   | 10,3  | 54        |

Umuman olganda, AQSh, Yaponiya va Germaniya xizmatlar va innovatsiyalarga asoslangan iqtisodiyotga ega bo‘lsa, O‘zbekiston va Xitoy sanoat hamda qishloq xo‘jaligiga ko‘proq yo‘naltirilgan. Rossiya esa transport, savdo va sanoat sohasida mustahkam pozitsiyaga ega. Bu tahlil davlatlar iqtisodiyotining umumiy rivojlanish yo‘nalishlarini va strategik ustuvorliklarini ko‘rsatadi.

Mamlakatimizda investitsiyalarni samarali joylashtirish va ulardan oqilona foydalanish iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va tizimli qayta qurishga hissa qo‘shmoqda. Hududlar o‘rtasida investitsiyalarni ratsional taqsimlash orqali nafaqat ularning hajmini oshirish, balki moliyalashtirish manbalarini kengaytirish masalalari ham yechim topmoqda. Bu esa mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

### XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillik yillaridan buyon iqtisodiyotning barcha sohasida bo‘lgani kabi, qurilish sanoatida ham keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirib kelmoqda. Ayniqsa, so‘nggi yillarda Prezident farmon va qarorlari asosida amalga oshirilayotgan sektorni modernizatsiyalash, raqobatbardosh iqtisodiy muhitni shakllantirish va innovatsion texnologiyalarni joriy qilish orqali qurilish sohasi mamlakat iqtisodiyotining eng dinamik rivojlanayotgan tarmoqlaridan biriga aylandi.

O‘zbekistonda 2017–2024-yillar davomida olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, qurilish sanoatining yalpi ichki mahsulotdagi (YAIM) ulushi muntazam oshib bormoqda. Bu o‘zgarishlar, avvalo, sektorning institutsional islohoti, zamonaviy qurilish materiallari ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish, litsenziyalash

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

tizimini soddalashtirish, shaffof tender tartiblarini joriy etish va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish bilan bogʻliq.

Biroq bu ijobiy oʻzgarishlarga qaramay, hali yechimini kutayotgan muammolar mavjud. Jumladan:

- Qurilish meʼyor va qoidalarining (SHNQ va QMQ) eskirganligi;
- Qurilishda energiya samaradorlik va ekologik standartlarning yetarli darajada joriy etilmaganligi;
- Malakali mutaxassislar yetishmovchiligi;
- Qurilish sohasida korrupsiya xavfi yuqoriligi;
- Mahalliy qurilish materiallari tannarxining nisbatan balandligi.

Shuningdek, jahon tajribasi tahlili shuni koʻrsatmoqdaki, rivojlangan davlatlarda qurilish sohasi innovatsiyalarni oʻzlashtirish, yashil iqtisodiyot prinsiplarini amaliyotga tatbiq etish va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirishda muhim drayver hisoblanadi. Oʻzbekiston ham bu yoʻnalishda strategik yondashuvlarni kuchaytirishi zarur.

Quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Normativ-huquqiy bazani tubdan isloh qilish: Yangi texnologiyalar va ekologik talablarga javob beradigan, xalqaro ISO, EN, ASHRAE kabi standartlarga muvofiq milliy qurilish normalari va texnik reglamentlar ishlab chiqilishi lozim. Bu esa mahalliy va xorijiy investorlar uchun huquqiy ishonchni oshiradi.

2. Qurilish sanoatini raqamlashtirish: BIM (Building Information Modeling), GIS (Geographic Information Systems) va boshqa raqamli texnologiyalarni keng joriy qilish orqali loyiha boshqaruvi, smeta tuzish, sifat nazorati va monitoring tizimlari samaradorligini oshirish mumkin. Bu yondashuv loyiha muddati va tannarxini kamaytiradi, shaffoflikni oshiradi.

3. Mahalliy qurilish materiallari bozorini diversifikatsiya qilish: Qurilish materiallari ishlab chiqarishda tabiiy resurslar (gʻovak tosh, ganch, kaolin, bazalt, fosfogips va b.) asosida zamonaviy, ekologik toza materiallar ishlab chiqarishni ragʻbatlantirish zarur. Ilmiy-tadqiqot institutlari bilan ishlab chiqaruvchilar oʻrtasida klaster tizimi joriy qilinishi muhim.

4. Kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirish: Qurilish sohasida muhandislik, loyihalash, smetachilik va texnik nazorat yoʻnalishlari boʻyicha zamonaviy oʻquv dasturlari asosida dual taʼlim tizimini joriy etish kerak. Bu sohani mehnat bozori talablariga moslashtiradi.

5. Davlat-xususiy sheriklik (DXSH) asosida infratuzilmani rivojlantirish: Yoʻl, koʻprik, ijtimoiy obʼyektlar (maktab, shifoxona, sport inshootlari) qurilishi uchun davlat tomonidan DXSH loyihalari orqali investitsiyalarni jalb etish zarur. Maxsus infratuzilma fondlari tashkil qilinishi maqsadga muvofiq.

6. Qurilishda yashil texnologiyalarni keng joriy qilish: Energiya tejamkor bino va inshootlar loyihalash, quyosh panellari va issiqlik izolatsiyasi yechimlari asosida “yashil qurilish” texnologiyalarini qonuniy asosda majburiy joriy qilish lozim. Bu Oʻzbekistonning ekologik barqarorlikka erishish strategiyasiga mos keladi.

7. Viloyatlar va qishloq hududlarida qurilish faoliyatini rag‘batlantirish: Markazdan uzoq hududlarda arzon ipoteka, soddalashtirilgan yer ajratish va yerosti infratuzilmasini tayyorlab berish orqali xususiy sektorni uy-joy qurilishiga jalb etish mumkin.

8. Investitsion muhitni yaxshilash: Xususiy va xorijiy sarmoyadorlar uchun soliqqa oid yengilliklar, kafolatlangan huquqiy muhit, shaffof tender mexanizmlari va infratuzilmaviy qo‘llab-quvvatlash tizimi yo‘lga qo‘yilishi kerak.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Асаул А.Н. Инвестиционно-строительный комплекс: экономика, управление, организация. — СПб: Изд-во Питер, 2003.

2. Бузирев В.В., Суворов А.П. Экономика и управление в инвестиционно-строительном комплексе. — Москва: Экономика, 2007.

3. G‘ozibekov D.G‘. Investitsiya faoliyati va uning iqtisodiyotdagi ahamiyati. Toshkent, 2018.

4. Dodiev F.O‘. Iqtisodiyotda investitsiya faoliyatini rag‘batlantirish mexanizmlari. Toshkent, 2019.

5. T. G‘ulomov. (2022). O‘zbekistonda qurilish va investitsiya sohasining rivojlanishi. Toshkent: "Iqtisodiyot va Tarmoqlar" nashriyoti.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 2020-yil 13-martdagi PF-5963-son “O‘zbekiston Respublikasining qurilish sohasida islohotlarni chuqurlashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori.

7. K.I. Ortikbaevich. Attracting investment projects to the construction industry and improving their efficiency. 2021. SAARJ Journal on Banking & Insurance Research, 10(1), 47–53.

8. N. Yusupdjanova, I. Karimov. Investment projects in the field of construction materials production. 2020. Theoretical & Applied Science, 18–21.

9. Inomjon Ortikbaevich Karimov. Qurilish korxonalarida investitsiyalarni boshqarish samaradorligini aniqlashda vaqt omilining o‘rni va ahamiyati. O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali, 2-son, 2023-11-21.

10. Karimov Inomjon Ortikbaevich. Factors affecting the effectiveness of investment management. Synergy: Cross-Disciplinary Journal of Digital Investigation (2995-4827), Vol. 2, No. 4 (2024).

11. [www.stat.uz](http://www.stat.uz) — O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi sayti.



# Marketing

*ilmiy, amaliy va ommabop jurnali*

**Muharrir:** Xakimov Ziyodulla Axmadovich  
**Ingliz tili muharriri:** Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich  
**Rus tili muharriri:** Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li  
**Musahhah:** Karimova Shirin Zoxid qizi  
**Sahifalovchi va dizaynerlar:** Sadikov Shoxrux Shuxratovich  
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

**2025-yil, may, 5-son**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: [info@marketingjournal.uz](mailto:info@marketingjournal.uz)  
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)  
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710. ГОСТ 7.56-2002** " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**